

O‘QITUVCHINING INTEGRATIV YONDASHUV KOMPETENSIYASI - O‘QUVCHILARNING NUTQIY RIVOJLANISHINI TA‘MINLOVCHI ASOSIY PEDAGOGIK OMIL

Toshtemirova Dinora Abduraxim qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

E-mail: toshtemitovadinosh7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchining integrativ yondashuv kompetensiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi asosiy omil sifatida tahlil etilgan. Tadqiqotda integrativ yondashuvning nazariy va metodik asoslari, shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta‘minlovchi pedagogik mexanizmlar ochib berilgan. Amaliy qismda Montessori pedagogikasi va Scaffolding (tayanchli o‘qitish) yondashuvlari integratsiya qilinib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va til faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv asosidagi darslar o‘quvchilarda nutqiy faollikni, o‘z fikrini ifodalash qobiliyatini va til boyligini sezilarli darajada oshirgan.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, kompetensiya, nutqiy rivojlanish, pedagogik mexanizm, Montessori pedagogikasi, integratsiya, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati.

Аннотация. В данной статье анализируется компетентность учителя, использующего интегративный подход, как ключевой фактор формирования речевой компетентности учащихся начальной школы. В исследовании раскрываются теоретико-методологические основы интегративного подхода, а также педагогические механизмы, обеспечивающие развитие речи учащихся. В практической части была проведена интеграция подходов Монтессори-педагогика и Scaffolding (базового обучения), что способствовало развитию самостоятельности мышления, культуры общения и языковой активности учащихся. Результаты показали, что уроки, основанные на интегративном подходе, значительно повышают речевую активность учащихся, способность к самовыражению и языковое богатство.

Ключевые слова: интегративный подход, компетентность, развитие речи, педагогический механизм, педагогика Монтессори, интеграция, самостоятельность мышления, культура общения.

Annotation. This article analyzes the teacher's integrative approach competence as a key factor in the formation of speech competence of primary school students. The study reveals the theoretical and methodological foundations of the integrative approach, as well as pedagogical mechanisms that ensure the speech development of students. In the practical part, Montessori pedagogy and Scaffolding (basic teaching) approaches were integrated, which served to develop students' independent thinking, communication culture and language activity. The results showed that lessons based on the integrative approach significantly increased students' speech activity, ability to express their own thoughts and language richness.

Key words: integrative approach, competence, speech development, pedagogical mechanism, Montessori pedagogy, integration, independent thinking, communication culture.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Bu jarayonda o'qituvchining integrativ yondashuv kompetensiyasi - ya'ni fanlararo bilimlarni uyg'unlashtira olish, psixologik-pedagogik metodlarni moslashtirish, o'quvchini markazga qo'ygan o'qitish strategiyalarini amalga oshirish qobiliyati - hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuv o'quv jarayonida o'qituvchi, o'quvchi va til vositalarining o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirib, nutqiy rivojlanishning tabiiy jarayonini qo'llab-quvvatlaydi (Vygotskiy, 1978; Bruner, 1986; Montessori, 1964).

Tadqiqotda sifat tahlili (qualitative analysis) va kuzatuv-metodik tajriba usullaridan foydalanildi. Eksperimental ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borildi.

Integratsion o'qitish o'zi nima? Bu ta'lim jarayonida turli fanlar, metodlar, shakllar va o'qitish vositalarini bir butun tizimga birlashtirish orqali o'quvchilarning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik yondashuvdir.

Bu yondashuvda bilim alohida mavzularda emas, balki mazmunan va maqsadan kelib chiqib o'zaro bog'langan holda o'rgatiladi.

Boshlang'ich ta'limda integratsion o'qitish, ayniqsa, nutqiy kompetensiyani shakllantirishdavi muhim ahamiyatga ega. Chunki nutq - bu faqat til darsi orqali emas, balki barcha fanlar orqali rivojlanadigan kommunikativ faoliyat turidir. Shuning uchun o'qituvchi fanlararo bog'liqlikni yaratish orqali o'quvchilarda muloqot, tushunish, izohlash va ifodalash ko'nikmalarini uyg'un rivojlantiradi (Hammond, J., Gibbons, P.; 2005).

1. Montessori yondashuvi - bolalarning tabiiy qiziqishi va sezgi tajribasiga tayanib, ularni mustaqil faoliyatga yo'naltirish; nutqiy materiallarni o'yin va amaliy mashg'ulotlar orqali o'zlashtirish.

2. Scaffolding (tayanchli o'qitish) - Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, o'qituvchining bosqichma-bosqich yordam berishi orqali o'quvchining nutqiy mustaqilligini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Ularni integratsiya qilganda:

- Montessori metodikasi ichki motivatsiyani va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, bolani o'zi mustaqil so'zlar va gaplar tuzishiga xato bo'lsa ham qo'yib beradi, qandaydir qo'rquvlarsiz, bosimlarsiz o'rgangadi.

- Scaffolding yondashuvi muloqot, fikrni tuzish va grammatik to'g'rilikni shakllantiradi, xatolarni kuzatib boradi va monitor natijasida to'g'rilashga va rivojlantirishga qo'yib beradigan mashg'ulotlar topadi va yordam beradi.

Integratsiya ikki yondashuvni integratsiyalash orqali o'qituvchi o'quvchining individual rivojlanish tezligini inobatga olgan holda, nutqiy kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantiradi. Bu esa integrativ o'qitishning zamonaviy amaliy yangiligi sanaladi., o'quvchi o'z nutqini tayin kontekstda, o'qituvchi yordamidan mustaqil ravishda tashkil eta oladi. Shunday integratsion yondashuv boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali modeli sifatida ko'riladi. Bu ikki yondashuvning integratsiyasi o'quvchilarning tabiiy nutqiy o'sishini qo'llab-quvvatlab, ularni o'z fikrini erkin ifoda etishga undaydi.

Tajriba sinovlari natijasida quyidagilar aniqlandi:

- Integrativ darslarda o'quvchilarning so'z boyligi, gap tuzish ko'nikmasi va og'zaki ifoda ancha yaxshilandi.
- Montessori metodikasi o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik va o'zini ifoda etish ishtiyoqini kuchaytirdi.
- Scaffolding yondashuvi esa o'qituvchining yordamidan bosqichma-bosqich mustaqil faoliyatga o'tish jarayonini samarali yo'lga qo'ydi.
- O'qituvchilar integrativ metodlardan foydalanganda dars jarayoni interaktiv, jonli va ijodiy muhitda kechgani kuzatildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining integrativ yondashuv kompetensiyasi nutqiy rivojlanish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Montessori yondashuvi o'quvchi mustaqilligini rivojlantirsa, scaffolding modelida o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi rolni bajaradi. Ularning uyg'unlashuvi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlovchi, lekin bir vaqtning o'zida mustaqil fikrlashga undovchi muhitni yaratadi. Bu yondashuv o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga nafaqat lingvistik, balki psixologik va ijtimoiy tomondan ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan o'qitish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Montessori va scaffolding tamoyillarining uyg'unlashuvi o'quvchilarning mustaqil nutqiy faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, o'qituvchi esa bu jarayonda fasilitator va motivator sifatida faoliyat yuritadi. Shunday qilib, o'qituvchining integrativ yondashuv kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning strategik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Montessori, M. (1964). *The Montessori Method*. New York: Schocken Books.
2. Vygotskiy, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

3. ZG Axmedova. The influence of English on contemporary Uzbek language and culture. *The Development History and Modern Significance of Intercultural Dialogue* 1 ..., 2024.
4. Bruner, J. (1986). *Actual Minds, Possible Worlds*. Harvard University Press.
5. Cameron, L. (2001). *Teaching Languages to Young Learners*. Cambridge University Press.
6. ZG Axmedova. *Beyond Barriers: Fostering Inclusive Classrooms for Every Student*. *The Lingua Spectrum* 1 (1), 80-82, 2024.
7. Hammond, J., & Gibbons, P. (2005). *Scaffolding and Second Language Learning*. Sydney University Press.
8. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The Power of Feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81–112.
9. ZG Axmedova. Mastering writing at the initial stage of learning English. *Tamaddun nuri* 1 (ISSN 2181-8258), 220-223, 2024.
10. Abdisheribov, S., Yo'Ldosheva, M., & Jumayeva, M. (2022). Implementing creative writing in English language teaching classrooms. *Science and innovation*, 1(B8), 1343-1347.
11. Furkatovna, A. S. (2025). Boshlang'ich ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida matematika darsini tashkil etish. *Fan va Tadqiqot Samaralari*, 2(3), 67-74.
12. Piaget, J. (1970). *Science of Education and the Psychology of the Child*. Orion Press.
13. Shodmonova, D., & Mahmudova, M. (2021). Integrativ yondashuvning boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, 3(2), 45–52.
14. Z Akhmedova. The last leaf: a masterpiece of sacrifice and hope by O. Henry. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 487-489, 2024.
15. Jumayeva, M. B. (2022). Oliy ta'limda innovatsion usul va vositalar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.